FARG‘ONA VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI FONDIDAGI “KOMMUNA” GAZETASI – TARIX VA TARG‘IBOT UYG‘UNLIGI (1938-1991-YILLAR)

G. Ostanaqulova
Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi sektor mudirlari

ANNOTATSIYA. *Maqolada Farg‘ona viloyatining ijtimoiy-siyosiy nashri bo‘lgan “Kommuna” gazetasi (1938-1991-yillar) sahifalarida sovet davlatining iqtisodiy targ‘iboti va tashqi siyosiy yo‘nalishlarining yoritilishi masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi gazeta fondida saqlanayotgan gazetaning asl nusxalari — fondda mazkur nashrning barcha yillik sonlari to‘liq holda mavjud — asosida olib borilgan. Muallif ushbu manbalarni bevosita fond materiallari bilan ishlash jarayonida o‘rgangan. Tahlil natijasida gazeta sahifalarida paxta yakkahokimligi, sotsialistik musobaqa va “mingchilar harakati” kabi targ‘ibot shakllari, shuningdek, “sovuq urush” davri xalqaro voqealarining sovet mafkurasi nuqtai nazaridan taqdim etilishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *davriy matbuot, “Kommuna” gazetasi, muzey gazeta fondi, iqtisodiy targ‘ibot, paxta yakkahokimligi, tashqi siyosat, sovet mafkurasi, Farg‘ona viloyati.*

ABSTRACT. *This article examines how the newspaper “Kommuna” (1938-1991), the socio-political press organ of the Fergana region, covered the Soviet state's economic propaganda and foreign policy. The study is based on original issues held in the newspaper archive of the Fergana Regional State Museum of History and Culture, where the complete annual runs of the newspaper are preserved; the author worked directly with these fund materials in preparing the article. The analysis shows how the cotton monoculture, socialist competition, and the “thousanders' movement” were promoted on the newspaper's pages, and how Cold War-era international events were framed to fit Soviet ideology.*

Keywords: *periodical press, “Kommuna” newspaper, museum newspaper fund, economic propaganda, cotton monoculture, foreign policy, Soviet ideology, Fergana region.*

KIRISH

Sovet davri mahalliy matbuoti davlat mafkurasini aholi ongiga singdirishning eng muhim vositalaridan biri bo‘lgan.[1] Farg‘ona viloyati miqyosida bu vazifani viloyat va shahar partiya qo‘mitalari, hamda viloyat Sovetining organi sifatida faoliyat yuritgan “Kommuna” gazetasi bajargan. Gazeta o‘z davrida viloyat aholisi uchun asosiy axborot manbai bo‘lib, uning sahifalarida qishloq xo‘jaligi va sanoatga oid targ‘ibot materiallari bilan bir qatorda xorijiy davlatlar hayotiga doir xabarlar ham muntazam bosilib turilgan.

Ushbu maqolaning manbaviy asosini Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi gazeta fondida saqlanayotgan “Kommuna” gazetasining asl sonlari tashkil etadi. Fondda mazkur nashrning 1938-1991-yillarga oid deyarli barcha yillik komplektlari to‘liq saqlanib qolgan, bu esa gazeta materiallarini xronologik tartibda va tizimli ravishda o‘rganish imkonini beradi. Muallif fond bilan bevosita ishlash, ya'ni gazetaning original nusxalarini varaqlab chiqish va ulardagi maqolalarni saralash jarayonida to‘plangan kuzatishlar asosida mazkur maqolani tayyorladi.[2]

Maqolaning maqsadi — gazeta sahifalarida ikki yo‘nalish: birinchidan, respublika va viloyat iqtisodiyotiga, xususan paxtachilikka oid targ‘ibot materiallarining berilish xususiyatlarini; ikkinchidan, sovet davlatining tashqi siyosatiga oid xabarlarning qanday mafkuraviy yondashuv asosida yoritilganligini ochib berishdan iborat.

1. GAZETA SAHIFALARIDA IQTISODIY TARG‘IBOT MATERIALLARI

XX asrning 50-yillaridan boshlab mamlakatda mafkuraviy ishga, ayniqsa aholini sotsialistik tuzumga sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi. “Kommuna” gazetasining uchinchi sahifasi an'anaviy ravishda viloyat iqtisodiyoti, birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi masalalariga bag‘ishlangan. Bu sahifada yerga ishlov berish, g‘alla va paxta yetishtirish, bog‘dorchilikka oid maqolalar muntazam bosilib turgan. “Mo‘l hosil olish uchun zamin hozirlamoqdamiz” (1952-yil, 132-son), “G‘o‘za parvarishida qoloqlikka barham berilsin” (1952-yil, 138-son) kabi sarlavhalar shu davr targ‘ibotining xarakterli namunalaridir.[3]

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida paxtaning yakkahokim ekinga aylanishi jarayoni kuchaygan. Gazeta sahifalarida yil davomida paxta bilan bog‘liq mavsumiy kompaniyalar — yerni tayyorlash, ekish, parvarish qilish va terim — bo‘yicha rayonlar kesimida kunlik hisobotlar berib

[1] Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб / Масъул муҳаррирлар Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
[2] Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi gazeta fondi, "Kommuna" gazetasi, 1938-1991-yillar komplektlari.
[3] Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi gazeta fondi, "Kommuna" gazetasi, 1952-yil, 132- va 138-sonlar.

borilgan, orqada qolgan xo‘jaliklar tanqid qilingan, ilg‘orlar esa butun viloyatga namuna sifatida ko‘rsatilgan. Ayniqsa paxta terimi mavsumida “mingchilar harakati” nomi bilan mashhur bo‘lgan targ‘ibot keng qo‘llanilgan; “100 ming tonna tayyor!” va “200 ming tonna tayyor” (1963-yil, 184- va 191-sonlar) kabi sarlavhalar buning dalilidir.[4]

Gazetada berilgan statistik ma'lumotlar — masalan, “Plan muddatidan oldin bajarildi” (1953-yil, 1-son) maqolasidagi ko‘mir, transport va neft sanoati bo‘yicha ko‘rsatkichlar — sovet iqtisodiyotining “muvaffaqiyatlari”ni namoyish etishga xizmat qilgan. Biroq bu raqamlarning aksariyati respublika iqtisodiyotining real ahvolini emas, balki markazlashtirilgan rejaviy tizimning mafkuraviy vazifasini aks ettirgan.[5] Mahalliy sanoat korxonalarining aksariyati eskirgan uskunalar bilan ishlagan, respublikada yetishtirilgan paxtaning 93 foizga yaqini xomashyo sifatida undan tashqarida qayta ishlangan.[6] Shunga qaramay, gazeta sahifalarida bu kabi tizimli muammolar deyarli aks etmagan, aksincha “Barcha maydonlarni chigit ekishga tayyorlaymiz” (1959-yil, 59-son) yoki

1980-yillarga kelib, xo‘jalik hisobi va o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta'minlash tamoyillarini joriy etishga urinishlar boshlangan bo‘lsa-da, natija kutilganidek bo‘lmadi: 1988-yilda respublikadagi 1267 yirik sanoat korxonasining atigi 25,3 foizi to‘liq xo‘jalik hisobi asosida ishlagan.[7] Sotsialistik iqtisodiy tizimga xos bo‘lgan yalpi ko‘rsatkichlarni bo‘rttirish amaliyoti gazeta sahifalarida keltirilgan raqamlarning haqiqiy ahvolni to‘liq aks ettirmasligiga olib kelgan.

2. GAZETADA TASHQI SIYOSIY VOQEALARNING YORITILISHI

“Kommuna” gazetasining to‘rtinchi sahifasi xorij xabarlariga ajratilgan bo‘lib, turli davrlarda “Dunyo xabarlari”, “Chet el xabarlari”, “Jahon bo‘ylab”, “Planetamizda” kabi sarlavhalar ostida chiqib turgan. Bu sahifadagi materiallar sovet tashqi siyosati manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan edi, chunki mamlakatning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati to‘liq Markaz tomonidan boshqarilar, respublikalarning bu boradagi mustaqil harakati amalda cheklangan edi.

Gazeta sahifalarida “sovuq urush” davri munosabatlari, xususan AQSh bilan bog‘liq keskinliklar keng yoritilgan. “Amerika aviatsiyasi Koreyada tinch aholini bombardimon qilishni davom ettirmoqda” (1953-yil, 75-son), “AQShning riyokorligi”

[4] Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi gazeta fondi, "Kommuna" gazetasi, 1963-yil, 184- va 191-sonlar.
[5] Каримов И. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 227.
[6] Зиёдуллаев С.К. Ўзбекистон экономикасининг регионал проблемалари. – Тошкент: Фан, 1987.
[7] Аминова Р. Қайта қуриш шароитида Ўзбекистонда социал ривожланишнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991.

(1983-yil, 173-son) kabi sarlavhalar orqali G‘arb davlatlariga nisbatan tanqidiy pozitsiya shakllantirilgan. Shu bilan birga, N.S. Xrushchevning 1959-yildagi AQShga tashrifi yoki M.S. Gorbachevning 1980-yillar oxiridagi Amerika safari kabi nisbatan “iliqlashuv” davrlariga oid xabarlar ham gazetada o‘z aksini topgan.[8]

Do‘stona munosabatlarga misol tariqasida SSSR-Xitoy va SSSR-Kuba aloqalari alohida o‘rin egallagan: “XXR MXX Raisi o‘rtoq Mao Tze-dunga telegramma” (1953-yil, 38-son), Fidel Kastroning Sovet-Kuba do‘stligiga bag‘ishlangan maqolasi (1963-yil, 19-son) kabi materiallar orqali “sotsialistik lager” davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik targ‘ib qilingan.[9] Alohida o‘rinni 1966-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Hindiston-Pokiston tinchlik muzokaralari va Toshkent deklaratsiyasi egallaydi — bu voqea O‘zbekiston SSRning sovet tashqi siyosatidagi vositachilik rolini namoyish etuvchi misol sifatida gazetada keng aks etgan.

O‘zbekiston SSRning xalqaro faoliyati asosan ko‘rgazma va yarmarkalar tashkil etish, xorijiy delegatsiyalarni qabul qilish bilan chegaralangan bo‘lsa-da, respublika paxta, jun, qorako‘l va boshqa mahsulotlarni qator “rivojlanayotgan” davlatlarga (Afg‘oniston, Hindiston, Suriya, Efiopiya va boshqalar) eksport qilib, sovet tashqi iqtisodiy siyosatining amaliy ijrochisi vazifasini bajargan. Gazeta sahifalari, demak, nafaqat xabar berish, balki respublikaning “sotsialistik hamkorlikdagi” o‘rnini mafkuraviy jihatdan asoslash vazifasini ham o‘tagan.

XULOSA

“Kommuna” gazetasi sahifalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, sovet davri mahalliy matbuoti markazlashtirilgan mafkuraviy tizimning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qilgan. Iqtisodiy targ‘ibot orqali paxta yakkahokimligi va rejaviy iqtisodiyotning “muvaffaqiyatlari” bo‘rttirib ko‘rsatilgan, real muammolar esa deyarli yoritilmagan. Tashqi siyosiy axborot esa dunyo voqealarini sotsialistik tuzumning ustunligini isbotlash vositasiga aylantirgan. Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi gazeta fondida saqlanayotgan “Kommuna” gazetasining to‘liq komplektlari bu davr matbuoti va mafkurasini har tomonlama, birinchi manba asosida o‘rganish uchun boy imkoniyat yaratadi.[10] Kelgusida ushbu fond materiallari asosida gazetaning boshqa yo‘nalishlari — madaniyat, ta'lim va kundalik hayotga oid targ‘ibot — bo‘yicha ham tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

[8] Муҳитдинов Н. Кремлда ўтган йилларим. Сталин, Маленков, Хрушчев, Брежнев, Андропов билан биргаликда ишлаган уруш, меҳнат ва партия фахрийси эсдаликлари. 1-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 54-55.

[9] Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi gazeta fondi, "Kommuna" gazetasi, 1953-yil, 38-son; 1963-yil, 19-son.

[10] Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi gazeta fondi, "Kommuna" gazetasi, 1938-1991-yillar komplektlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Муҳитдинов Н. Кремлда ўтган йилларим. Сталин, Маленков, Хрушчев, Брежнев, Андропов билан биргаликда ишлаган уруш, меҳнат ва партия фахрийси эсдаликлари. 1-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 54-55.
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб / Масъул муҳаррирлар Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
3. Аминова Р. Қайта қуриш шароитида Ўзбекистонда социал ривожланишнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991.
4. Каримов И. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 227.
5. Зиёдуллаев С.К. Ўзбекистон экономикасининг регионал проблемалари. – Тошкент: Фан, 1987.
6. Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi gazeta fondi, "Kommuna" gazetasi, 1938-1991-yillar komplektlari.